

## JEK LONDON VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINING BADIY USLUB JIHATIDAN QISYOSLI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10925802>

**Bahriddinov Muslimbek Muhiddinovich**

*Andijon davlat chet tillari instituti, o'qituvchi*

[bahriddinov5434@gmail.com](mailto:bahriddinov5434@gmail.com)

+998942775434

### **Annotatsiya:**

*Ushbu maqola, o'zlarining milliy adabiyoti rivojida katta iz qoldirgan, hikoya janrida betakror deya atalgan ikki buyuk hikoyanavislar, Abdulla Qahhor va Jek Londonning hikoyalarini qiyosiy jihatdan tadqiq etadi. Hikoya yozishning vaqt va mazmun jihatidan cheklanganligi uning tuzilishi, kompozitsiyasi va tili bo'yicha o'ziga xos talablarni qo'yadi, bu esa chuqur badiiy mahorat talab qiladi. Tanlangan yozuvchilar Jek London va Abdulla Qahhor bu talablarga to'liq mos keladi.*

### **Tayanch iboralar**

*Hikoya, badiiy asar mavzular, yozish uslubi, qiyosiy tahlil, xarakteristika, ekspozitsiya, milliy adabiyot, konflikt, strukturalizm, dialog va yangicha tanqid.*

### **Kirish**

Bu maqolada ushbu yozuvchilarning adabiy asarlarini taqqoslash muhim o'rin tutadi. Ko'pgina hollarda badiiy asarlarni taqqoslash "badiiy uslub" deb nomlangan maxsus adabiy vosita yordamida o'rganiladi. Adabiyotdagi badiiy uslub deganda bir yozuvchining asardagi uslubini boshqasidan ajratishga yordam beradigan atributlar tushuniladi. Bu badiiy uslub yozuvchini haqiqiy, o'ziga xos va boshqa yozuvchilardan farqli taraflarini ochib beradigan birlik hisoblanib, o'quvchi hikoyani o'qiganida buni his qiladi.

Yuqoridagi barcha faktlar malum asarlarning qiyosiy tahlili, ayniqsa, istalgan ikki yozuvchining badiiy uslubi qiyosiy adabiyotshunoslikda e'tiborga molik tadqiqot bo'lishi mumkinligini isbotlaydi.

Bu ikki yozuvchini qiyoslash orqali biz Amerika va o'zbek milliy adabiyotlarining yuqorida tilga olingan janr nuqtai nazaridan o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

### **Munozara:**

Badiiy adabiyotning muhim elementlaridan biri bu ekspozitsiyadir. Tadqiqotimiz markazidagi elementlardan biri bo'lgan ekspozitsiya hikoyaning kirish qismi sifatida ko'tariladi. Bu adabiy tanqidning muhim bo'g'ini bo'lib, zarur ma'lumotlarni taqdim etish uchun ma'lumot beradi. A.J. Smit ekspozitsiya haqida ta'rif berar ekan "Ekspozitsiya – bu har qanday hikoyaning fazasi bo'lib, asarda dastlab ko'zga tashlanuvchi bir unsurdir. Ekspozitsiya hikoyada dastlab o'quvchiga qahramonlarni tanishtiradi, vaziyatni tavsiflaydi va hikoyani tushunishga yordam beradigan muhim materiallarni taqdim etadi.<sup>13</sup>

Yuqoridagi iqtibosdan ko'rinib turibdiki, ekspozitsiya qahramonlar va hikoya sodir bo'ladigan joyni tanishtirish shakli hisoblanadi. Bundan tashqari, u bosh qahramon muammosini o'z ichiga olgan hikoyaning muhim materialini taqdim etadi. Ekspozitsiya o'quvchini jalb qiladi. Koen hikoyaning ekspozitsiyasi bir necha gapdan iborat birgina jumla, paragraf, yohud ikki yoki uchta paragraf bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, ammo uning uzunligi noaniq bo'lishi mumkin emas.<sup>14</sup>

Ushbu mazmunda ekspozitsiya J. London va A. Qahhor hikoyalarini qiyoslash elementi sifatida ham xizmat qilishi mumkin, chunki har ikki yozuvchilar ham ekspozitsiya yaratishda mohir hisoblanishadi. Ikkala adiblar ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan "so'z uchun ochko'z" yozuvchi deb hisoblanadi. Ko'p hollarda ikki yozuvchining hikoyalarida keltirilgan so'zlar va iboralar tavsiflovchi xarakterga taalluqli sabab-oqibat yoki ramziy ma'nolarga ega. Bu iboralar, xususan, Bruksning J. London hikoyalari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarida ekspozitsiya sifatida tasniflanadi.<sup>15</sup> An'anaviy ravishda hikoyaning ekspozitsiya qismi deb ataluvchi qismi yo'q, uni kirish paragrafi yoki oddiygina kirish sifatida e'lon qilish mumkin.<sup>16</sup> Hikoya zich yoki siqilgan bo'lishi kerakligi sababli, boshlang'ich yoki birinchi xatboshi haqiqiy hikoyani boshlaydi. Bu hikoyaning yozuvchining istak – xoxishlari va hikmatini aks ettiruvchi nuqtai nazari taqdim etilgan qismidir. Kirish paragraflarini o'zgartirishning bu usuli yozuvchining uslubini oshiradi. J. London hikoya syujeti uchun ekspozitsiya sifatida ishlatiladigan so'zlarning bir xil vazifasini tez-tez ishlatgan. Masalan, "Karmen bir necha kundan ortiq davom etmaydi" (London. White Silence, p-20); "... chunki biz kasalmiz, ular bizning erkinligimizni tortib olishadi" (London. Koolau The Leeper, p-362); "Ah Cho frantsuz tilini tushunmadi." (London. Chinago, 303-bet) yuqorida keltirilgan barcha ekspozitsiyalar o'quvchi e'tiborini tortadi, uning tasavvurini faollashtiradi va qahramonlarga nisbatan his-tuyg'u va hamdardlik uyg'otadi. Bu usul, birinchi

<sup>13</sup> Smith, A.J. and Mason, W.H. Short story study: A critical evaluation. London: Towards Arnold Ltd., 1966, page – 71

<sup>14</sup> Cohen, B.B. Writing about literature. Glenview Illinois: Scott, Foresman and Company, 1973, page – 110

<sup>15</sup> Brooks, C. and Warren, R.P. Understanding fiction. New Jersey: Prentice-Hall Inc., 1979

<sup>16</sup> Day, A.G. The art of narration: The short story. New York: McGraw-Hill Book Company, 1971, page – 33

navbatda, o'quvchining hikoyani o'qishga kirishgandan so'ng qolgan qismini o'qish istagini uyg'otadi.

Hikoya mazmunida ekspozitsiyaning xuddi shunday qo'llanishi asosan A.Qahorning adabiyotiga, jumladan, badiiy uslubiga ham xosdir. Shuningdek, u ekspozitsiya vazifasini bajaruvchi mazmunli va kitobxonning hissiyotlarini qo'zg'ovchi gaplarni keng ifodalovchi bunday iboralardan ham tez-tez foydalangan. "Sotvoldining hotini og'rib qoldi" (A.Qahhor. "Bemor"); yoki "To'qqizinchi sinfnig a'lochilaridan, temir-tersakni hammadan ko'p yig'ib, oti radiodan aytilgan va maktab ma'muriyatidan raxmatlar eshitgan Zuhraxon degan qiz yo'qlib qoldi." (A. Qahhor. "Nurli cho'qqilar").

Ekspozitsiyaning predmeti sifatida odamlar, umumiy bilimlar, g'oyalar, insonning fikrlashi, ma'lumot taqdim etish, talqin qilish va ishontirish kabilarni ko'rsatilishi mumkin. Qahramonlarning o'rni hamda ular haqidagi muhim fikrlar syujetning ushbu qismida qisqacha muhokama qilinadi.

Hikoyada oldin sodir bo'lgan yoki nima sodir bo'lishi ham ekspozitsiyaning bir qismini tashkil qiladi. Shuning uchun ekspozitsiyani "qanday" va "nima uchun" savollarga javob berish orqali tushuntirish katta ahamiyatga ega. Asarda to'liq ta'minlanishi mumkin bo'lgan qahramonlar va xayoliy dunyo haqida ma'lum miqdordagi ma'lumotlarni oldindan berilgandek tuyulishi mumkin. Sternberg ta'kidlashicha ekspozitsiyaning vazifasi – o'quvchini noma'lum dunyo, hikoyaning xayoliy dunyosi bilan tanishtirish, unga nima sodir bo'layotganini tushunish uchun zarur bo'lgan umumiy va o'ziga xos ma'lumotlarni taqdim etishdir.

Yuqoridagi izoh shubhasiz ushbu tadqiqot maqsadiga mos keladi, chunki u mavjud sharoitlarni o'rganishga intiladi va yozuvchini o'z asari haqida yozishga undaydi. Bunday shartlar ajralmas hisoblanadi. Yozuvchining hikoyani boshlashdagi badiiy uslubi katta ahamiyatga ega. Ekspozitsiya – personajlar, ijtimoiy muhit, voqealar, vaqt va muhitning kiritilishi sifatida ko'plab savollar tug'diradi. Ushbu tadqiqot natijasida yozuvchi hikoyaning mavzusini va go'yasini ochib berishda foydalanishi mumkin bo'lgan turli xil usullar mavjudligi aniq. Bular dialog tizimi yoki dramatik harakat, xarakter yoki ekspozitsiya, hodisa va tabiat ekspozitsiyalari va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bruks va Uorren ekspozitsiyani "o'quvchiga hikoyaning tegishli harakati boshlanishidan oldin mavjud bo'lgan qahramonlar va voqealar haqida kerakli ma'lumotlarni berish jarayoni" deya ta'riflashadi.<sup>17</sup> Bu syujet harakatining boshlanishi bo'lib hikoyadan kelib chiqadigan taxminlarni bayon qiladi.

<sup>17</sup> Brooks, C. and Warren, R.P. Understanding fiction. New Jersey: Prentice-Hall Inc., 1979, page – 511

Yozuvchi o'z qalamini yozishga majburlashdan oldin qanday sharoitlarni ta'kidlab o'tish zarur?! Shunday qilib, o'quvchilar yozuvchini yozishga undaydigan qahramonlar, voqealar va muammolar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar. Bu nuqta hikoya qilish kerak bo'lgan nuqtai nazarni ko'rsatadi. Bunday ma'lumotlar berilmagan holda, o'quvchidagi ilgari mavjud bo'lgan tasavvur va tahminlariga xavf soladi. Hikoyaning bu qismi muhim ahamiyatga ega, chunki u hikoyada asosiy qahramonni o'z ichiga oladigan muammo yoki vaziyatni yanada ochib beradi. Hikoyada uning talablarini tartibga soluvchi me'yor natijasida batafsil tushuntirish berilmasa-da, lekin bunday qisqacha ma'lumot juda muhimdir.

Demak, ekspozitsiya o'quvchida taassurot qoldiradi, chunki o'qishni boshlashning aynan shu nuqtasida o'quvchi har qanday ma'lumotni olishi mumkin. Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ekspozitsiyani e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki u ikki tomonlama maqsadni bajaradi va ingliz va o'zbek adabiyotiga xos bir xil lingva-madaniy xususiyatlarga egadir. Boshqacha aytganda ekspozitsiya – bu hikoyani reklama qiladigan yoki sotadigan maxsus qismidir. Agar o'quvchini ushbu muqaddima o'ziga jalb qilmasa, u hikoyani o'qishdan osongina voz kichadi va boshqa asar o'qish ishtiyoqi paydo bo'ladi.

Qiyoslanayotgan har ikkala yozuvchining ekspozitsion qismlari kirish paragraflari sifatida hikoyalarda ishlatilgan, hamda ular o'zining aniqligi va ixchamligi bilan juda ham mashhur. Ular o'quvchilarni hikoyaning badiiy asar mavzusi, ishtirok etgan qahramonlar va harakat joyi bilan tanishtiradilar. Ular o'quvchining qiziqishini uyg'otadi va shu bilan keskinlikni keltirib chiqaradi.

Yozuvchining badiiy uslubini aniqlash uchun yana boshqa bir qiyoslash elementi - bu hikoyalar mazmunida foydalaniladigan "jonlantirish" dir. Koen tomonidan ko'tarilgan xarakteristika so'zlarda badiiy personajlarni yaratish san'ati sifatida tasvirlangan va ularga inson o'ziga xosligini beradi. Shubhasiz, inson o'ziga xosligining elementlari, shuningdek, barcha belgilar realistik yoki hayotiy bo'lishi kerak. Bu voqea hikoyada adabiy siymolar yaratilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, personajlar yozuvchi tomonidan yaratilgan dunyoga to'liq mos kelishini talab qiladi.<sup>18</sup> Abrams M.H ham o'z tadqiqotlarida bu fikrni ta'kidlagan edi: "Biz personajlarning romanning boshqa jihatlari – syujetga, axloqqa, asardagi boshqa qahramonlariga, asardagi muhitga va boshqalarga o'zaro bog'liqligini taminlashimiz kerak bo'ladi. personajlar o'z ijodkorlarining boshqa talablariga ham o'z navbatida moslashishlari kerak bo'ladi".<sup>19</sup>

<sup>18</sup> Cohen, B.B. Writing about literature. Glenview Illinois: Scott, Foresman and Company, 1973, page – 177

<sup>19</sup> Abrams, M.H. A glossary of literary terms. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1971, page – 48

Yuqoridagi fikrlar roman haqida gapiradi, bu tadqiqot esa hikoyaga qaratilgan. Agar hikoya asosan romanga suyananini hisobga olsak, romanning ko'p jihatlari hikoyaga ham taalluqli. Yuqoridagi fikr, markaziy qahramonning o'zgarishi yoki o'zgarmasligi ko'rsatadigan hikoyaning mohiyatini belgilab berganga o'xshaydi.

Ushbu maqola mazmunida biz J.London va A.Qahorning hikoyalaridagi qahramonlar obrazini ochishga harakat qilamiz. Jonlantirish ham hikoya yozishdagi muhim elementi sanalib, juda qiziq jihatdir. Black E.L jonlantirishning muhimligini ta'kidlar ekan: Hikoya mohiyatan voqealar ketma-ketligini bog'lashdir. U personajlar, voqealar, syujet, badiiy asar mavzusi, g'oya va badiiy asar tili kabi elementlarni o'z ichiga oladi, lekin qat'iy ma'noda u harakatni, ya'ni qahramonlar bilan sodir bo'ladigan jismoniy hodisalar ketma-ketligi belgilaydi.<sup>20</sup>

Kuzatishlarga qaraganda, qahramon yoki qahramonlarning fikri, dialogi va harakatlari hikoyada tasvirlangan voqealarning keyingi rivojlanishini aks ettiradi. Keyinchalik olimlar jonlantirishni xatti-harakatlar, so'zlar yoki his-tuyg'ular tasvirlangan umumiy toifalarga ko'ra tasnifladilar. Asosan, olimlar ularni hikoyada bajaradigan vazifalariga asoslanib belgilaydilar. Badiiy adabiyot - tan olish kerakki, bu ishonarli tasvirlangan insonlar dunyosi hisoblanib u biz bizgan dunyodan farqli o'laroq juda xilma - xildir. Bu mazmunda personajlarning ishonarliligi haqidagi tushuncha fantastika qahramonlarining muhim xususiyati sifatida qaraladi. Ta'kidlanganidek, jonlantirish - bu badiiy matnda qahramonlarni taqdim etishda yozuvchi tomonidan qo'llaniladigan usullarning birligidir. Kitobxonlar adabiy personajlarni axloqiy, fe'l - atvor va jismoniy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar deb ta'kidlaydilar. Hikoyaning mukammalligi hikoyaning bosh qahramonini personajlar orqali taqdim etishida yaqqol ko'rinadi.

J. London va A. Qahorning ko'plab sara hikoyalari ikkita muhim yoki uchta qahramonni o'z ichiga olganligini, va boshqalarni esa ahamiyatsiz holda ortiqcha ta'riflarsiz keltirilishini aniqlashimiz mumkin. Mukammal belgilar inson tabiatining namunasiga sodiq bo'lishi kerak bo'lgan belgilardir. Shou (1983:146) shunday ta'kidlaydi: Dumaloq xarakter to'liq rivojlangan ... shunday qo'shimcha o'lchovlarni oladiki, biz kitobxonlar sifatida uni tirik, nafas oluvchi mavjudot sifatida taniymiz va tushunamiz.

## Xulosa

<sup>20</sup> Black, E.L. and Parry, J.P Aspects of the short story. London: John Murray, 1973, page – 48

Ushbu maqolada qisqa nasriy badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan ikki adibning hikoyalarining yozilish uslubi, badiiy asar mavzu tahlili va til xususiyatlarini qiyoslashga ko'proq e'tibor qaratildi.

A. Qahhar va London asarlaridagi insonparvarlik g'oyalari va munosabatlarini tasvirlash o'rtasida zamona munosabati mavjud. Badiiy uslubini milliy o'zlikni aks ettirish usuli sifatida emas, balki qisqa vaqt ichida millionlab odamlarga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan o'xshash tushunchalarni aniqlash kerakligi haqida o'ylash muhimdir. Tadqiqotimiz, badiiy tushuncha va personajlarni tasvirlashning madaniy xususiyatlari esa universalligini ko'rsatdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

14. Abrams, M.H. A glossary of literary terms. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1971
15. Albright, E.M. The short story: Its principles and structure. London: The Macmillan Company, 1909
16. Black, E.L. and Parry, J.P Aspects of the short story. London: John Murray, 1973
17. Boshego, P.L. Theme, character, setting, style and Language in Maditsi's short stories. A Critical evaluation. Unpublished M A dissertation; Pretoria: University of South Africa, 1994
18. Brooks, C. and Warren, R.P. Understanding fiction. New Jersey: Prentice-Hall Inc., 1979
19. Cohen, B.B. Writing about literature. Glenview Illinois: Scott, Foresman and Company, 1973
20. Day, A.G. The art of narration: The short story. New York: McGraw-Hill Book Company, 1971
21. McAdams, D.P. The stories we live by: Personal myths and the making of the self. New York: The Guilford Press, 1993.
22. Shaw, V. The short story: A critical evaluation. London: Longman, 1983
23. Smith, A.J. and Mason, W.H. Short story study: A critical evaluation. London: Towards Arnold Ltd., 1966
24. Stone, W. et al. The short story: An introduction. San Francisco: McGraw-Hill Book Company, 1983
25. Umurov H. "Adabiyor nazariyasi" Toshkent, "Merius" 2004

26. Writing and Writers. Ed. Dale L. Walker. New York: KenniKat Press, 1979.
27. M.Bahriddinov. Some Problems of Lexical Investigation of the Novel Ulysses by James Joyce. Scientific Bulletin of Namangan State University 2 (1), 208-212, 2020
28. R.Yaqubjonova. E. Xeminguey asarlarida qo'llanilgan xorijiy so'zlarning lingvostilistik xususiyatlari va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari. Eurasian Journal of Academic Research.87-92. 2023
29. G.Zaynobiddinova. The role of E-Media in our lives: shaping The modern world. Journal of language and linguistics 184-192 2023
30. G.Zaynobiddinova. Literature as a Branch of Linguistics. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). 8-11. 2024